SO‘ROQ KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

NavDU 1-kurs magistranti

Isroilova Firuza Yashinovna

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi o‘zbek tilshunosligida gaplar so‘roq shakli so‘roq yuklamalarisiz va so‘roq olmoshlar ishtirokisiz so‘roq ma’nosi anglashilib kelishi mumkinligini Luqmon Bo‘rixonning “Ota qarg‘ishi” asari orqali ko‘rib o‘tamiz.*

Kalit so‘zlar: *so‘roq shakli, ohang, lisoniy, nolisoniy, ochiq, yopiq so‘roq gaplar. So‘roq yuklamalar va so‘roq olmoshlari.*

Аннотация: *В этой статье мы рассмотрим сегодняшнюю Узбекскую лингвистику через агрессию отца Лукмана Брохана, значение подвергая сомнению значение допроса без участия допроса добавленного местоимения.*

Ключевые слова: *Форма допроса, тон, следовательно, полисани, открытый, закрытый допрос. Проо Скачания и допрос.*

Annotation: *In this article, we will consider today’s Uzbek linguistics through the Father’s Agression of Luqman Brohan, without the interrogation of question without the download of interrogation form.*

Keywords: *Questioning form, tone, hence, polyisani, open, closed questioning. Proos of downloads and interrogation.*

Kirish qismi so‘roq gap-gaplarning kuzatilgan maqsadiga ko‘ra turlaridan biri; so‘zlovchining biror noma’lum va noaniq narsa hodisani bilishi uchun tinglovchiga murojaatini ifodalovchi, so‘roq mazmunli gap. Asosiy xususiyati vazifasiga ko‘ra so‘roq gaplar 2 turli bo‘ladi: sof so‘roq gaplar va ritorik so‘roq gaplar. [1.1].

So‘roq gaplar lisoniy va nolisoniy tarzda ifodalanishi mumkin. Sof so‘roq gaplar o‘zbek tilshunosligida odatda so‘roq gaplar so‘roq yuklamalari va so‘roq olmoshlari yordamida ishtirok etadi. So‘roq gap og‘zaki nutqda ohang bilan ifodalanadi.

Taqrizlarda, iqtiboslarda biron so‘z yoki jumla noaniq bo‘lsa, xato qo‘llansa, gumon va anglashilmovchiliklarni bildirsa, o‘sha so‘z yoki jumladan so‘ng qavsga o‘ragan holda qo‘yiladi. Ba’zan jumladagi xato juda qo‘pol bo‘lsa, so‘roq belgisi qo‘sha qo‘llanilishi mumkin. [1.2].

So‘roq gaplarning turlari va ularning strukturalari turli tillarda farq qiladi. Masalan:

1. Yopiq so‘roq gaplar: Bu gaplar “ha” yoki “yo‘q” javobni talab qiladi.

2. Ochiq so‘roq gaplar: Bu gaplar kengroq javoblarni talab qiladi va savolni qanday qilib berish tilning semantikasi va pragmatikasiga bog‘liq.

Endi konsept tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, konsept bu o‘zbek tilshunosligida tilshunoslik va semantika (ma’no) bilan bog‘liq bo‘lib, u inson tafakkurida shakllangan umumiy tushuncha, obraz yoki g‘oya degan ma’noni anglatadi.

Tilshunoslikda konsept - bu so‘zlar orqali ifodalanadigan, odam ongida mavjud bo‘lgan bilim, tajriba va tasavvurlar majmui. U faqat lug‘aviy ma’noni emas, balki madaniy, emotsional, tarixiy, milliy mazmunni ham o‘z ichiga oladi.

Rus tilshunosligida so‘roq konsepti tilshunoslik va konseptual tahlil doirasida o‘rganiladi. Bu tushuncha inson tafakkurida savol berish bilan bog‘liq bilimlar, intilishlar, kommunikativ niyatlar va madaniy qadriyatlar majmui sifatida qaraladi.

Jahon tilshunosligida so‘roq konseptini tahlil qilgan olima T.V.Matveeva bo‘lib, savollar orqali yuzaga keladigan konseptual tuzilmalar, madaniy ma’no va diskursdagi rolini tadqiq qilgan. Asari: “Vopros kak lingvokulturniy fenomen” (Savol lingvokulturologik fenomen sifatida). O‘zbek tilshunosligida hali bu mavzu chuqur tadqiq qilinmagan, lekin kognitiv lingvistika, so‘z ma’nosi va konseptlar borasida Olimjon Hojiyev, Sh.Shoabdurahmonov, Z.Jumayev kabi olimlarning ishlari bor. [1.3].

Jahon tilshunosligida ham ko‘plab olimlar bu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borganlar. Jumladan, Stephen C.Levinson (Buyuk Britaniya) pragmatika va madaniyatlararo til o‘rganishda savollarni muhim kommunikativ vositasi sifatida tahlil

qilgan. Asari “Pragmatics” (1983). Dan Sperber va Deirdre Wilson Relevance Theory mualliflari savollarni kontekst asosida tushunishga urg‘u beradilar. Asari: “Communication and Cognition” (1986). Anna Wierzbicka (Polsha-Avstraliya) savollarni semantic primes (asosiy birlamchi ma’nolar) orqali tahlil qiladi. Har bir madaniyatda savollar orqali ifodalanadigan konseptlar turlicha bo‘lishini ko‘rsatadi. Asari: “Cross-cultural Pragmatics” (1991), “Semantics: Primes and Universals” (1996). Deborah Tannen (AQSh) gender va madaniyatlararo muloqot kontekstida savollarni o‘rganadi. Ayollar va erkaklarning savol berish uslublari qanday farq qilishini tahlil qiladi. Asari: “You just don’t understand: Women and Men in conversation” (1990). Teun A. van Dijk (Niderlandiya) diskurs tahlil orqali savollarning hokimiyat, ijtimoiy kuch va nazorat vositasi sifatida qanday ishlatilishini ko‘rsatadi. Asari: “Discourse and power” (2008). [1.4].

O‘zbek tilshunosligida ham so‘roq-konsepti qisman o‘rganilgan bo‘lib, Olimjon Hojiyev o‘zbek tilida gap turlari, jumladan so‘roq gaplar sintaksisini chuqur o‘rgangan. Xurshid Dadasev pragmatika va til birliklarining muloqotdagi funksional jihatlarini tahlil qilgan. Shoabdurahmonov Sh. tilshunoslikda muloqot va nutq turlari haqida yozgan, so‘roq gaplarni muloqotdagi roli orqali tahlil qiladi. [1.4].

O‘zbek tilida savollar va ularning muloqotdagi vazifasi, intonatsiyasi, muomala madaniyatidagi o‘rni haqida ko‘plab maqolalar mavjud. So‘roq gaplarning information yuklamasi, muloqot maqsadi va nutq aktyorlarining niyati kabi jihatlari o‘rganiladi. Masalan: “Savol gaplarning kommunikativ vosita sifatida o‘rganilishi” kabi maqolalar ayrim ilmiy jurnallarda uchraydi. [1.5].

Biz Luqmon Bo‘rixonning “Ota qarg‘ishi” nomli asaridan so‘roq gaplarning leksik-semantik xususiyatlarini ko‘rib o‘tamiz.

Toshdan toshga sakrab, atrofiga hadik-xavotir bilan alanglab ulkan archa biqiniga yetib kelgan o‘n yetti yoshar yigitcha tuyqus qarshisiga chiqqan, soch-soqolli

o‘siq, ozg‘in-to‘zg‘in, egniga janda chopon, oyog‘iga yirtiq etik kiygan sharpani ko‘rib beixtiyor ortga tisarildi.

– Ota?! [2.3].

Bu gapda “ota” so‘zi so‘roq va undov belgisi orqali ifodalanayapti. His-hayajonni ifodalash uchun dastlab, so‘roq so‘ng undov belgisi qo‘yilgan. “Ota” so‘zi harakat yordamida, taajjublanish asosida so‘roq gap keltirilgan. Hech qanday so‘roq yuklamasi va so‘roq olmoshlari orqali ifoda etilmagan. Lisoniy so‘roq gap deb olamiz. Sababi lisoniy ya’ni so‘z orqali ifodalanayotgan uchun.

Bolam, bu nima gap?! – dedi ota o‘g‘liga hang-u mang tikilib, ablah, Rahim sotibdida…. [2.5]. Ushbu gapda “nima” so‘roq olmoshi orqali so‘roq gap hosil qilingan. “Nima” so‘zi o‘z-o‘zidan predmetga, jonsiz narsa yoki hayvonlarga nisbatan ishlatilganligi sababli shaxsga emas, predmetga qaratilgan so‘roq gap deb olamiz.

– Ota yalt etib o‘g‘liga yuzlandi.

Shu gaplar rostmi?! “Rostmi” so‘zida esa -mi so‘roq yuklamasi orqali so‘roq gap hosil qilinyapti.

– Ana, bozor, – dedi Murat mashinani panjarali darvoza yonida to‘xtatib, – sen bemalol bozor-o‘charingni qilaver, men idoraga borib kelaman, bir yarim soatlarda qaytaman, sen meni shu yerda kutib turgin. Xo‘p?

– Xo‘p? [2.14]. “Xo‘p” so‘zida so‘roq belgisi qo‘yilgan bo‘lib, lisoniy so‘roq gap hosil bo‘lgan.

– Sen ham sezibsan-da, a? [2.24]. Bu gapda esa so‘roq qo‘shimcha tarzidagi yuklama ishtirok etyapti, “a”. Bu gapda insonga nisbatan ichki kechinmalarni bilish maqsadida so‘roq gap qo‘llanilgan.

– Ancha kech chiqibsiz, uka, yo‘l bo‘lsin? [2.32]. Bu gapda esa lisoniy so‘roq gap mavjud. So‘roqni ifoda etuvchi so‘z yoki qo‘shimcha ishtirok etmagan. Ushbu so‘roq gapni lisoniy tarzda ifoda etilgan so‘roq ma’noli gap deb olamiz.

– Yo‘g‘-e?! Qanday qilib? Axir eringizdan baloga qolasiz-ku? [2.45]. Bu gaplarda ketma-ket so‘roq gaplar qo‘llanilyapti. Birinchi gapda “e” tovushi mavjud bo‘lib, bir harf yordamida his-hayajonli so‘roq gap hosil bo‘lyapti. E’tiroz bildirilib, kishining hayrat-taajjubini aks etyapti. Ikkinchi gapda esa so‘roq olmoshi “qanday” so‘zi orqali, uchinchi gapda qo‘shimcha yuklama orqali so‘roq gap hosil bo‘lgan. Birinchi gap lisoniy tarzda so‘roq gap hosil qilinayotgan bo‘lsa, ikkinchi va uchinchi gapda ham lisoniy shaklda so‘roq gap qo‘llanilyapti, sababi keltirilgan ushbu gaplar so‘roq olmoshi va yuklamalar yordamida shakllangan.

– Sakina?! – Latif xotin tomon intildi; – Sakina! [2.47]. Keltirilgan bu gapda esa his-hayajon va taajjub orqali, lisoniy shaklda so‘roq gap hosil bo‘lyapti. Shaxsga qaratilgan so‘roq gap deb olamiz.

– Aaa?! – G‘ani tahlikada baqirganicha qotib qoldi. [2.46]. Bu gapda esa “a” tovushi orqali lisoniy so‘roq gap hosil qilgan. Dastlab, his-hayajondan ko‘ra, so‘roq ma’nosi kuchliligi sabab, so‘roq shakli, so‘ng undov belgisi qo‘llanilmoqda.

– Namuncha kallai saharlab… igna yegan itdek halloslab yuribsiz?

– O‘zim … deb ming‘irladi Latif xijolatomuz, – akam uydalarmi? [2.50]. Keltirilgan birinchi gapda so‘roq olmoshi, so‘roq yuklamalar va boshqa shakllarsiz so‘roq gap hosil bo‘lyapti. Demak bu so‘roq gap shaxsga nisbatan lisoniy tarzda so‘roq ma’nosi shakllanyapti. Ikkinchi gapda esa “mi” so‘roq yuklamasi yordamida so‘roq gap shakllangan, shuning uchun bu gapni ham lisoniy so‘roq gap deb olamiz.

– Qiziqmisiz, oyisi, o‘z ukamni qanaqa qilib ko‘chaga haydayman. Jigarima?! [2.53]. Ushbu gapda qo‘llanilgan “jigarima” so‘zida hayrat, taajjublanish orqali so‘roq gap lisoniy tarzda hosil bo‘lyapti.

– Lochin? – Nahotki bu Abray aka bo‘lsa?! [2.53]. Bu gapda esa “Lochin” shaxsning ismi, taajjublanish orqali hech qanday qo‘shimchalarsiz lisoniy tarzda so‘roq ma’nosi ifodalanyapti. “Bo‘lsa” so‘zida ham hech qanday so‘roq qo‘shimchalar va so‘zlar mavjud emas. Shuning uchun ham bu gap lisoniy so‘roq gapdir.

– Shu… mehmonlardan uzr so‘rab, sovg‘a-salomlar bilan jo‘natib yuborsak-chi? Nima zaril ortiqcha bosh og‘rig‘i?! [2.59]. Bu gaplarda “chi” so‘roq yuklamasi orqali so‘roq gap hosil qilinganligi sababli bu gapni ham lisoniy so‘roq gap deb olamiz. “Nima” so‘zi esa so‘roq olmoshi orqali gap hosil qilinganligi uchun bu gapni ham lisoniy tarzda shakllangan so‘roq gap deb qabul qilamiz.

– Balki aynan xatosi shunda bo‘lgandir? [2.61]. Ushbu gapda esa “dir” gumon yuklamasi shakli ifodalangan bo‘lib, gumon bilan birgalikda so‘roq ma’nosi ham shakllanganligi sababli so‘roq gap hosil qilingan.

– Namuncha tikilasz? – dedi Roziya o‘ng‘aysizlanib. – Yana bo‘kib ichibsiz-a? [2.64]. Berilgan bu gapning birinchi qismida gap ma’nosi kuchaytirilgan, ya’ni “namuncha” so‘zi orqali ajablanish hissi yo‘g‘rilgan va so‘roq gap hosil qilingan. Shaxsga nisbatan lisoniy, ya’ni hech qanday so‘roq shaklini hosil qiluvchi yordamchilarsiz so‘roq gapi shakllangan. Gapning ikkinchi qismida “a” so‘roq yuklamasi yordamida so‘roq gap hosil qilgan. Bu gapni ham lisoniy tarzda shakllangan so‘roq gap deb olamiz.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Biz faqat lisoniy so‘roq gaplarga e’tibor qaratyapmiz, nolisoniy so‘roq gaplar qanday shaklda bo‘lishi mumkin deb o‘ylab qolishimiz mumkin. Nolisoniy so‘roq gaplar hech qanday so‘zlarsiz, xatti-harakatlar, taajjublanish, his-tuyg‘ular yordamida shakllanadi. Bunday gaplar, odatda yozma nutqdan ko‘ra og‘zaki nutqimizda ko‘proq uchraydi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, so‘zlashuv uslubida ko‘p uchraydi.

So‘roq gaplar genderlik jihatdan ham, yosh jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Misol uchun yoshga nisbatan aytadigan bo‘lsak, yoshi ulug‘larga nisbatan yoshi kichik bo‘lgan bolalarda savollar ko‘proq tug‘iladi. Olamni endi taniyotgan bolalarda har narsaga qiziqish kuchli bo‘lganligi sababli ularda so‘roq gaplar ko‘p uchraydi. Genderlik xususiyatini inobatga oladigan bo‘lsak, tabiatdan erkaklarga nisbatan ayollarda ko‘proq savol berish xususiyati uchraydi. So‘roqni konsept sifatida olib

chiqish uchun kundalik hayotimizda ilmiy izlanishlar olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, so‘roq-konsepti o‘zbek tilshunosligida hali to‘liq o‘rganilmagan. Bu borada ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, so‘roq-konseptini albatta genderlik va yosh xususiyatlarini inobatga olib tadqiq qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ziyonet.uz
2. Luqmon Bo‘rixon “Ota qarg‘ishi” Toshkent-2023.
3. Hojiyev O. “O‘zbek tili sintaksisi”-Toshkent: O‘qituvchi, 1987
4. Dadasev X. Pragmatik tilshunoslik asoslari-Toshkent 2005.